QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)

IJTIMOIY FANLAR
SOCIAL STUDIES

https://doi.org/10.70728/a.series.ijt.v08.i10.098

O‘ZBEKISTONDAGI ENG QADIMGI SHAHARLARNING DAVLATCHILIK TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI VA ILK DAVLATLARNING HUDUDIY ASOSLARI

Shukurov Rustam Juraqulovich
Nizomiy Ganjaviy nomidagi
O‘zMPU “Tarix” kafedrasi dosnt v/b, PhD

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistondagi eng qadimgi shaharlarning taraqqiyoti va ularning o‘zbek davlatchiligi jarayonidagi o‘rni tahlil etilgan. Qolaversa, shaharlarning hududiy asoslari ham yoritilgan. Qadimgi shaharlarning kelib chiqishiga oid bir necha shart–sharoitlar ham o‘rganilgan. Shaharlarning rivojlanishida o‘zaro aloqalari va ummiyliklariga ham e’tibor qaratilgan.

Калит сўзлар: davlatchilik, shahar, shaharsozlik, hudud, Qadimgi Xorazm, Qadimgi Baqtriya, savdo –hunarmandchilik, Afrosiyob, Qiziltepa, Uzunqir, Yerqo‘rg‘on

Аннотация. В статье анализируется развитие древнейших городов Узбекистана и их роль в процессе становления узбекской государственности. Кроме того, рассматриваются территориальные основы этих городов, а также исследуются факторы, способствовавшие их возникновению. Уделяется внимание взаимосвязям и общим чертам в развитии данных городских центров

Ключевые слова: государственность, город, градостроительство, территория, Древний Хорезм, Древняя Бактрия, торговля и ремесло, Афрасиаб, Кызылтепа, Узункир, Еркурган

Abstract. This article analyzes the development of the oldest cities in Uzbekistan and their role in the process of Uzbek statehood. Furthermore, the territorial foundations of these cities are examined. Several factors contributing to the emergence of ancient cities are also explored. Attention is likewise given to the interconnections and common features in the development of these urban centers.

Keywords: statehood, city, urban planning, territory, Ancient Khorezm, Ancient Bactria, trade and craftsmanship, Afrasiyab, Kyzyltepa, Uzunqir, Yerkurgan.

KIRISH. Jahon davlatchilik taraqqiyoti jarayonlaridan shuni ko‘rsatadiki, davlatchilik evolyusiyasi jarayonida shakllangan har qanday yirik davlatlar va davlat uyushmalariningboshlang‘ich nuqtasi ilk shaharlar va shahar madaniyatidan boshlangan. Ilk shaharlarning paydo bo‘lishi dastlabki davlatchilik shakllanishidagi eng muhim va asosiy omil bo‘lib, bu ikki jarayon bir-biri bilan uzviy ravishda ro‘y bergan.

ASOSIY QISM

Miloddan avvalgi II ming yillikka kelib O‘zbekistonning qadimgi dehqonchilik vohalarida o‘troq qabilalar joylashuvi jarayonlari sodir bo‘lib, alohida eng qadimgi elatlarning shakllanishi va etnik guruhlarga ajralishi sodir bo‘ldi. Shunday hududlarda aholining ko‘payishi va joylashuv xususiyatiga ko‘ra zichlashib borishi, o‘troq dehqonchilikning rivojlanishi, hunarmandchilikning taraqqiy etishi, ijtimoiy tabaqalarning shakllanishi va boshqaruv an’analarining vujudga kelishi, savdo-sotiq (dastlabki vaqtlarda mol ayirboshlash) va madaniy aloqalarning kuchayib borishi va ayni vaqtda siyosiy va harbiy jarayonlarning chuqurlashib borishi dastlabki shaharlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Mulkka egalik qilish jarayonlarining jamiyat hayotiga singib borishi, mulkka (asosan sug‘oriladigan yerlarga) egalik qilish va kengaytirishga intilish qabilalararo harbiy to‘qnashuvlarning kuchayishiga olib keldi. Bu omil esa qabilada harbiy kishilar guruhining shakllanishi va harbiy yo‘lboshchilarning ajralib chiqishi, ularning qabila ijtimoiy-siyosiy hayotida yetakchi o‘rin tutishiga olib kelgan bo‘lsa, bir vaqtning o‘zida qabila va uning tasarrufida bo‘lgan hududlarning xavfsizligini ta’minlashga intilishiga olib keldi. Endi qabila a’zolari o‘z hududlarini turli to‘siqlar bilan ixotalashga harakat qila boshladilar. Bu esa eng avvalo tabiiy to‘siqlarga bog‘liq edi. Bu jarayon asta-sekin qabilaga tegishli bo‘lgan katta hududlarning bir qismini, ya’ni mudofaalanish uchun eng qulay bo‘lgan qismini himoya vositalari bilan to‘sishga, keyinroq esa sun’iy ravishda mudofaa inshootlarini barpo qilinishiga olib keldi. Shu tariqa dastlabki shaharlar mudofaa maqsadlarida barpo etilgan bo‘lib, qabila va elatlarning dushmandan jon saqlashi uchun asosiy boshpana sifatida yuzaga kelgan bo‘lib, tobora kuchayib borayotgan ijtimoiy va iqtisodiy hamda siyosiy jarayonlarda iqtisodiy va siyosiy markazlarga aylanib borgan. Shaharlar ichki qal’a (shahar hukmdorlari qarorgohi) va shahriston (shahar aholisi yashaydigan va kundalik turmush bilan band bo‘ladigan shahar qismi) dan iborat bo‘lib, nafaqat shu shaharning o‘ziga, balki uning bar qancha atrof hududlariga ham o‘z hukmini o‘tkazishga erishgan.

Shaxarning ichki tarkibiy tuzilishi birinchi navbatda uning rivojlanish bosqichiga bog‘liq. Dastlabki shaharlar dehqonchilik vohalari markazi sifatida shakllangan. Uning ichki mazmunini savdo –hunarmandchilik, harbiy–ma’muriy boshqarish sistemasi va madaniy–mafkuraviy markazlar tashkil etadi. Qadimgi shaharlarning kelib chiqishi bir necha shart–sharoitga bog‘liq. Anna shunday shartlardan biri – axolining oziq–ovqatga bo‘lgan talabi qo‘lidagi xo‘jalik ixtirolarining yaratilishidir. Bu esa o‘z navbatida aholining dehqonchilik hududlarida bir markazga zichlashishiga imkon berdi. Bularga misol qilib quyidagi xo‘jalik ixtirolarini keltirish mumkin: dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi, dehqonchilikda sun’iy sug‘orishni joriy etish, xunarmandchilikning kulolchilik, metallurgiya, to‘qimachilik, zargarlik va boshqa sohalarining yuksak darajada rivolanganligidir.

Qadimgi shaharning vujudga kelishiga turtki brlgan ikkinchi omil bu hunarmandchilikning dehqonchilik xo‘jaligidan ajralib chiqishidir. Bu hunarmandchilik xo‘jaligining markazlashuviga va uning qator sohalarining ajralib, alohida faoliyat yuritishlariga imkoniyat tug‘dirdi. Bu esa shaharning ichki tuzilishini ta’minladi.

Shahar shakllanishidagi uchinchi omil jamiyatda ijtimoiy tengsizlikning kelib chiqishi, shu bilan birga jamiyatni boshqarish organlarining o‘zgarishi va murakkablashishi edi.

Jamiyat hayotida sodir bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar miloddan avvalgi III ming yillik oxirlari – II ming yillik boshlariga kelib, O‘rta Osiyo hududlarida dastlabki shaharlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Shahar madaniyatining shakllanishi ham jamiyat taraqqiyotida bo‘lgani kabi uzluksiz rivojlanish va taraqqiyotda davom etgan.Bu qonuniyatga ko‘ra shaharsozlik madaniyatining shakllanishi bosqichma-bosqich davom etib borgan. Miloddan avvalgi II ming yillikka oid Jarqo‘ton, Sopolli, Dashli, Gonur, Namozgoh, Oltintepa, Ulug‘tepa kabi ilk shaharlarda shaharsozlik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi uchun quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega bo‘lgan:

- aholining o‘troq dehqonchilikka o‘tishi va keng vohalar bo‘ylab yoyilishi;
- hunarmandchilikning rivojlanishi va sohalar bo‘yicha ixtisoslashib borishi;
- qadimgi savdo yo‘llarining yuzaga kelishi va ularning rivojlanishi jarayonida iqtisodiy va madaniy aloqalar hamda savdoning taraqqiy etib borishi;
- tabiiy-geografik hamda harbiy-strategik.

Shahar madaniyati dastlab O‘zbekistonning janubida, Surxondaryo hududlarida shakllandi, keyinroq bu jarayon shimolga – Zarafshon vohasiga ko‘chib, So‘g‘d, Xorazm, Shosh va Farg‘ona hududlariga tarqaldi.

Arxeologik ma’lumotlarning guvohlik berishicha, O‘zbekistonda mavjud yuo‘lgan eng qadimgi shaharlarning yoshi 2700 – 3000 yilga boradi. Bunday shaharlar qatorida Afrosiyob (Samarqand), Qiziltepa (Surxondaryo), Uzunqir, Yerqo‘rg‘on (Qashqadaryo) kabilarni alohida ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Eng qadimgi shaxarlarga xos belgilardan asosiysi, uning mudofa devorlari bilan o‘rab olinganligidir. Devorlar chuqur suv to‘ldirilgan xandaq bilan o‘ralgan. Bu shaxar qal’alarda ichki qal’a, axoli yashaydigan daxalar, xunarmandchilik ustaxonalari va savdo rastalari, ibodatxona joylashgan qismlari, shuningdek ayrim shaharlarda maxsus mahallalar, katta yoki asosiy (magistral) ko‘chalar va kanalizatsiya tarmoqlari ham mavjud bo‘lgan. Shaxarlar atrofida dexqon xo‘jaliklari va ekin maydonlari, bog‘lar joylashgan.

Arxeologik manbalarga ko‘ra Xorazmda miloddan avvalgi IX - VIII asrlarda paxsa va xom g‘ishtdan qurulgan uy – joylar mudofaa inshooatlari va boshqalar topilmagan. Shuningdek, bunday narsalar Baqtriya va Sug‘diyona xududlarida xam uchramagan. Miloddan avvalgi VII asrga oid Ko‘zaliqir va Baqtriyadagi Qiziltepa shaxarlari mudofa devorlaridagidagi o‘xshashliklar shu davrda bu yerlarda yirik shaxar markazlari bo‘lganligidan dalolat beradi.

Miloddan avvalgi VI asrdagi Xorazm sopol idishlarining Marg‘iyona, Baqtriya, Sug‘diyonadagi shunday buyumlarga o‘xshashlik jixatlari ko‘p bo‘lgan. Bu umumiylik va o‘xshashliklar yuqoridagi davlatlarning umumiy madaniyatga mansub bo‘lganliklaridan dalolat beradi. Miloddan avvalgi VII – VI asrlarda shakllangan va ancha yirik bo‘lgan Qadimgi Xorazm va Qadimgi Baqtriya davlatlarining axolisi til, urf – odatlar, madaniy xayot tarzi jihatidan umumiylikka ega bo‘lgan. Bu davrda jamiyatining xududiy bo‘linishi shakillanib, o‘troqlashuv jarayoni kuchaydi, shaxarlar, kal’alar paydo bo‘ldi, xo‘jalik taraqqiy yetdi.

Arxeologik tadqiqotlar natijasida o‘zbek arxeologlari O‘zbekistonning turli viloyatlarida bir qancha qadimgi shaxarlar xarobalarini topib o‘rgandilar. Tadqiqodlarining

guvoxlik berishicha, bu shaxarlarning ayrimlari bundan 2700 yillar avval paydo bo‘lgan. Ularga Afrosiyob (Samarqand), Qiziltepa (Surxon voxasi), Uzunqir, Yerqo‘rg‘on (Qashqadaryo voxasi) kabilar kiradi. Bu qadimiy shaxarlar ananalari Samarqand (Afrosiyob, Maroqand), Kitob – Shaxrisabz (Uzunqir), Qarshi (Yerqo‘rg‘on) hududlarida davom etdi.

XULOSA

Ilk davlatlarning xududiy asosini dexqonchilikka aloqador tumanlar tashkil etgan. Xo‘jalik yuritish maqsadida o‘zlashtirilgan yerlarda axoli zij joylashgan bo‘lib, ular “Madaniy – xo‘jalik” voxalari, deb yuritilgan. Manzilgoxlarning soni va o‘zlashtirilgan yerlarning umumiy maydoniga qarab madaniy – xo‘jalik voxalari bir necha guruhlarga bo‘lingan va ularning chegaralari sug‘orma dexqonchilik hududlari va sug‘orish tarmoqlari chegaralari bilan bog‘liq bo‘lgan.

Miloddan avvalgi VII – VI asrlarda axoli nisbatan zij joylashgan o‘troq voxalarda dexqonchilik jadal rivojlangan. Axolining asosiy mashg‘uloti – dexqonchilikdan tashqari xunarmandchilik va chorvachilik bo‘lgan. Ayrim uy xonalaridan topilgan usta xona jixozlari shundan dalolat beradi.Qishloq jamoalari o‘rtasida tovar ayriboshlashda “pul” vazifasini kulolchilik va temirchilik buyumlari, qishloq xo‘jalik maxsulotlari o‘tagan, tashqi savdoda (viloyatlar, mamlakatlar o‘rtasida) pul o‘lchovini xom-ashyo, qimmatbaxo xunarmandchilik buyumlari (metall idishlar, qurol – yarog‘lar, zeb – ziynat buyumlari), qimmatbaho tosh, oltin va kumush bajargan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. - T.: Sharq. 2000.

2. Eshov B. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi. - T., 2011.

3. Asqarov A. Jo’raqulov M. Eneolit va bronza davrida O’rta Osiyo. —Samarqand, 1984.

4. O’zbekiston davlatchiligi-taraqqiyot bosqichlari. (Oliy o’quv yurtlariaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari). - T., 2003.